BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.F.08.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI

FAYZULLAYEVA IQBOL-OY G‘AYRAT QIZI

ERKIN KAMOL TOPGAN SHAXSNI TARBIYALASHNING IJTIMOIY-FALSAFIY MUAMMOLARI

09.00.04 – Ijtimoiy falsafa

FALSAFA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTASIYASI AVTOREFERATI

Buxoro – 2026

UO‘K: 101.1:316:37.017-05(575.1)

Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по философским наукам

Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD) on philosophical sciences

Fayzullayeva Iqbol-oy G‘ayrat qizi
Erkin kamol topgan shaxsni tarbiyalashning ijtimoiy-falsafiy muammolari 5

Файзуллаева Икбол-ой Гайрат кизи
Социально-философские проблемы воспитания свободной развитой личности 23

Fayzullaeva Iqbol-oy Gayrat qizi
Socio-philosophical problems of fostering a free, developed personality.....45

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati
Список опубликованных работ
List of works published.....50

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.F.08.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI

FAYZULLAYEVA IQBOL-OY G‘AYRAT QIZI

ERKIN KAMOL TOPGAN SHAXSNI TARBIYALASHNING IJTIMOIY-FALSAFIY MUAMMOLARI

09.00.04 – Ijtimoiy falsafa

Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Buxoro – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2026.2.PhD/Fal1930 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat transport universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.buxdu.uz)va “Ziyonet” Axborot ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Irkayev Abdurahim Pandjiyevich** falsafa fanlari nomzodi, professor
Rasmiy opponentlar:	**Salomova Hakima Yusupovna** falsafa fanlari doktori, professor
	Voxidova Munira To’lqinovna falsafa fanlari nomzodi, dotsent
Yetakchi tashkilot:	**Navoiy davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/2025.27.12.F.08.02 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil “ 31 ” oktyabr soat 12:00dagi majlisida bo‘lib o‘. (Manzil: 200118, Buxoro tumani, Galaosiyo shahri, Ibn Sino ko‘chasi 1-uy (Xalqaro tadqiqotlar markazi), Tel.: (99865) 221-29-14; faks: (99865) 221-57-27; e-mail: buxdu_rektor@buxdu.uz).

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (1055 - raqam bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 200118, Buxoro shahri, M.Iqbol ko‘chasi, 11-uy. Tel.: (65)221-29-14; faks: (0365)221-29-14.)

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil “ 17 ” oktyabr kuni tarqatildi.

(2026-yil “ 17 ” oktyabr dagi 36 raqamli reyestr bayonnomasi.)

B.B. Namozov
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash raisi,
falsafa fanlari doktori, professor

A.Z. Sharipov
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash kotibi,
falsafa fanlari doktori, professor

N.O. Safarova
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi,
falsafa fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda globallashuv, raqamli transformatsiya va ijtimoiy munosabatlarning o‘zgarishi shaxsning erkin kamol topishi, mustaqil hayotiy pozitsiyasini shakllantirishi hamda o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarishda insondan axborotni tanqidiy baholash, ongli tanlov qilish va o‘z faoliyati oqibatlari uchun mas’uliyatni zimmasiga olishni talab etmoqda. Ayni paytda, qadriyatlar o‘rtasidagi tafovutlar va imkoniyatlardagi tengsizlik shaxs erkinligi bilan uning amalda ro‘yobga chiqishi o‘rtasidagi munosabatlarni chuqur o‘rganish inson huquqlarini ta’minlashga, ijtimoiy adolat o‘rnatishga, madaniy xilma-xillikka hurmat va hamkorlikka asoslangan murosa madaniyatini shakllantiradi. Shu nuqtayi nazardan, erkinlik, kamolot va shaxs kategoriyalarining dialektik aloqadorligini ochib berish, tarbiya mezonlarining jamiyat taraqqiyoti bilan bog‘liqligini aniqlash hamda individual mustaqillikni ijtimoiy mas’uliyat bilan uyg‘unlashtirishning ijtimoiy-falsafiy asoslarini ochib berish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Jahon ilm-fani, antropologik tadqiqot markazlarida shaxsning mustaqil faoliyat yuritish qobiliyati, qadriyatlarni ongli o‘zlashtirishi, intellektual va hissiy rivojlanishi hamda o‘zgaruvchan ijtimoiy muhitdagi o‘rnini anglashiga oid ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Erkin, mustaqil fikrlaydigan, ma’naviy barkamol va ijtimoiy mas’ul shaxsni shakllantirishda mumtoz qadriyatlarni inkor qilmaydigan, milliy qadriyatlaridan voz kechmaydigan, ayni vaqtda erkin kamol topgan shaxslarni tarbiyalash muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu nuqtayi nazardan zamonaviy jamiyat taraqqiyotining asosiy mezonlari – inson kapitali, shaxs komilligi, ijtimoiy faollik, kreativlik, tanqidiy fikrlash va ma’naviy mustaqillik kabi tushunchalarning ahamiyatini, shaxs erkinligi va kamolotiga oid tarixiy-falsafiy qarashlarni zamonaviy tarbiya muammolari bilan bog‘lash muammolarini, ularning komil inson konsepsiyasi bilan uyg‘un jihatlarini aniqlash zarurati ortib bormoqda.

Yangi O‘zbekistonda inson salohiyatini rivojlantirish, sifatli ta’lim-tarbiya imkoniyatlarini kengaytirish hamda Uchinchi Renessans poydevorini yaratishga qaratilgan maqsadlar erkin kamol topgan shaxsni tarbiyalash masalasiga alohida mazmun bag‘ishlamoqda. “ ...inson, jamiyat va davlatning barqaror rivojlanishini ta’minlashga qaratilgan “O‘zbekiston – 2030” strategiyasini ishlab chiqdik. Ushbu strategiyada xalqimizning erkin va farovon, qudratli Yangi O‘zbekiston borasidagi ezgu orzulari va xohish-irodasini ruyobga chiqarish, har bir fuqaroga o‘z salohiyatini rivojlantirishi uchun zarur sharoitlar yaratish, sog‘lom, bilimli va ma’naviy barkamol avlodni tarbiyalash, global ishlab chiqarishning muhim bo‘g‘iniga aylangan kuchli iqtisodiyotni shakllantirish, adolat, qonun ustuvorligi, xavfsizlik va barqarorlikni ta’minlash kabi vazifalar belgilab olindi”[1]. Shu bois O‘zbekiston sharoitida erkin kamol topgan shaxsni tarbiyalash imkoniyatlarini asoslash, ta’lim-tarbiya tizimini takomillashtirishga doir taklif va tavsiyalar ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

[1] Мирзиёев Ш.М. Ҳозирги замон ва Янги Ўзбекистон. – Тошкент:“O‘zbekiston”, 2026. – Б.553

O‘zbekiston Respublikasining 2016-yil 14-sentabrdagi O‘RQ-406-son “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”, 2020-yil 23-sentabrdagi O‘RQ-637-son “Ta’lim to‘g‘risida” qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi PF-21-sonli “Mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgacha mo‘ljallangan ustuvor yo‘nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2021-yil 4-martdagi PF-6181-sonli “2021-2025 yillarda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-sonli “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” farmonlari, 2018-yil 14-avgustdagi PQ-3907-sonli “Yoshlarni ma’naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta’lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2021-yil 26-martdagi PQ-5040-sonli “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 18-yanvardagi 23-sonli “O‘zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini 2025-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2019-yil 31-dekabrdagi 1059-sonli “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari hamda sohaga oid boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” nomli ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Inson kamoloti va axloqiy yetuklik masalalari qadimgi Sharq hamda antik davr falsafasidayoq markaziy o‘rin egallagan. Konfutsiy, Suqrot, Aflotun, Arastu, Seneka, Mark Avreliy, Sitseron kabi faylasuflar haqiqiy erkinlik insonning nafs istaklariga emas, balki aql va ma’rifatga bo‘ysungan holati ekanligi, komil insonni aql, jasorat va nafsni nazorat qilish sifatlari uyg‘unligida shakllanadigan shaxs sifatida tavsiflaydilar[2].

Sharq falsafiy tafakkurida inson kamoloti masalasi bilim, axloq, ma’naviy tarbiya va ijtimoiy hamkorlik bilan uzviy bog‘liqlikda rivojlangan. Abu Nasr Forobiy, Yusuf Xos Hojib, Alisher Navoiy asarlarida insoniy fazilatlar, ijtimoiy munosabatlar va axloqiy mas’uliyat masalalari tahlil qilingan. Tasavvuf ta’limotidagi komil inson konsepsiyasi esa ruhiy poklanish, o‘zini anglash va ma’naviy yuksalish masalalarini o‘rganishda alohida ahamiyatga ega. Imom

[2] Конфуций. Суҳбатлар ва мулоҳазалар. – Тошкент: Шарқ нашриёти, 2008. – 160 б.; Платон. Государство / пер. с древнегреч., вступ. ст. и коммент. А. Н. Егунова. – М.: Эксмо, 2019. – 416 с.; Аристотель. Никомахова этика / пер. с древнегреч. Н. В. Брагинской. – М.: Юрайт, 2020. – 352 с.; Платон. Диалоги: Апология Сократа. Критон. Федон / пер. с древнегреч. – М.: Академический проект, 2018. – 304 с.; Сенека Л. А. Нравственные письма к Луцилию / пер. с лат., коммент. – М.: Азбука-Аттикус, 2021. – 640 с.; Марк Аврелий. Размышления / пер. с греч., вступ. ст. – М.: Эксмо, 2020. – 224 с.; Цицерон М. Т. Об обязанностях / пер. с лат., коммент. – М.: Наука, 2017. – 256 с.

G‘azzoliy, Ibn Rushd kabi mutafakkirlar insonning kamoloti aqliy tarbiya, axloqiy poklik va ijtimoiy muhit bilan uzviy bog‘liq ekanini ta’kidlaydilar[3].

Yangi davr va undan keyingi G‘arb falsafasida shaxs erkinligining axloqiy hamda ijtimoiy asoslari yanada aniq nazariy muammo sifatida qo‘yilgan. I.Kant axloqiy qonun va insonni o‘z-o‘zicha maqsad sifatida e’tirof etish tamoyili, J.S.Mill fikr erkinligi, individuallikning rivojlanishi va jamiyatning shaxs hayotiga aralashish chegaralari tahlil qilingan. J.Dyui asarlarida ta’limning ijtimoiy tajriba, muloqot va demokratik hayot bilan aloqadorligi ochib berilgan. Zamonaviy xorijiy tadqiqotlarda shaxsning o‘zligini anglashi va hayotiy yo‘lini belgilashi o‘zgaruvchan ijtimoiy muhit bilan bog‘liq holda o‘rganiladi. A.Giddens modernlik sharoitida shaxsiy identiklikni, M.Kastels texnologik o‘zgarishlar va globallashuv jarayonlari bilan madaniy, diniy hamda milliy identiklik o‘rtasidagi munosabatlarni, L.Floridi axborot texnologiyalarining insonning o‘zi va borliq haqidagi tasavvurlariga ta’sirini, raqamli transformatsiya sharoitida shaxs kamolotining ijtimoiy-falsafiy muammolarini tadqiq etganlar. Z. Bauman, E. Fromm, Ch.Teylor, Y.Noy Harari kabi olimlar shaxsning ma’naviy va ijtimoiy o‘zligini saqlab qolish murakkablashayotganini ta’kidlaydilar[4].

MDH davlatlari ilmiy maktabida ham insonning shaxsiy o‘sishi, subyektivlik, ijtimoiy identifikatsiya va ma’naviy bosqichlarini tadqiq etish bilan bog‘liq bir qator fundamental ishlar mavjud. L.I.Ansiferova, S.I.Kudinov, A.I.Krupnov, B.F.Chechet, P.S.Gurevich, E.M.Spirova, D.A.Leontev kabi olimlarining ishlari shaxsning rivojlanishi, identiklik va erkinlik kabi kategoriyalarning nazariy asosini o‘rganilganligini ko‘rsatadi[5].

Zamonaviy o‘zbek olimlari tomonidan erkin kamol topgan shaxsni shakllantirish muammosi turli jihatlarda o‘rganib kelinmoqda. Ayniqsa, komil inson g‘oyasi, shaxs erkinligi, ma’naviy kamolot va ijtimoiy mas’uliyat masalalari milliy falsafiy tafakkurda ustuvor yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. N.Jo‘rayev,

---

[3] Форобий Абу Наср. Фозил одамлар шаҳри. – Тошкент: Фан, 1993. – 320 б.; Yusuf Xos Hojib. Qutadg‘u bilig, “Akademnashr” T.: 2016– B. 36. Алишер Навоий. Маҳбуб ул-қулуб. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1991. – 256 б.; Ғаззолий Абу Ҳомид. Иҳё улум ад-дин. – Қоҳира: Дар ал-Кутуб ал-Илмия, 1997. – 4 жилд. – 1-жилд. – 560 б.; Ибн Рушд. Фасл ал-мақол. – Байрут: Дар ал-Фикр, 1995. – 160 б.;

[4] Kant I. Fundamental Principles of the Metaphysic of Ethics (trans. Thomas Kingsmill Abbott). – London: Longmans, 2002. – P. 21.; Mill J. On Liberty. – Kitchener: Batoche Books, 2001. – P. 9.; Dewey J. Democracy and Education: An Introduction to the Philosophy of Education. – New York: The Macmillan Company, 1916. – P. 45; Giddens A. Modernity and Self-Identity: Self and Society in the Late Modern Age. – Stanford: Stanford University Press, 2001. – 256 p.; Castells M. The Power of Identity. – Oxford: Blackwell Publishing, 2004. – 584 p.; Floridi L. The Fourth Revolution: How the Infosphere Is Reshaping Human Reality. – Oxford: Oxford University Press, 2014. – P. 94; Bauman Z. Liquid Modernity. – Cambridge: Polity Press, 2000. – 239 p.; Fromm E. Escape from Freedom. – New York: Farrar & Rinehart, 2001. – 305 p.; Taylor C. Sources of the Self: The Making of the Modern Identity. – Cambridge: Harvard University Press, 1999. – 601 p.; Harari Y. N. Homo Deus: A Brief History of Tomorrow. – London: Harvill Secker, 2016. – 450 p.

[5] Анцыферова Л. И. Развитие личности и проблемы геронтопсихологии: монография. – М.: Институт психологии РАН, 2006. – 512 с.; Кудинов С. И., Крупнов А. И. Системная модель самореализации личности // Вестник Российского университета дружбы народов. Серия: Психология и педагогика. – 2008. – № 1. – С. 28–37.; Чечет Б. Ф. Сущность, условия и тенденции самореализации личности: автореф. дис. … канд. психол. наук. – М., 2002. – 24 с.; Гуревич П. С., Спирова Э. М. Идентичность как социальный и антропологический феномен: монография. – М.: Канон+РООИ «Реабилитация», 2015. – 368 с.; Леонтьев Д. А. Новые ориентиры понимания личности в психологии: от необходимого к возможному // Вопросы психологии. – 2011. – № 1. – С. 13–24

B.Tursunov, Q.Nazarov, H.Salomova, N.Safarova, M.Pardayeva, J.Shodiyev, N.Shamsutdinova, I.Eshpulatov, I.Suvanov, M.Voxidova kabi olimlar ijodida inson kamoloti muammosi avvalo ma'naviyat va milliy qadriyatlar bilan uzviy bog'liq holda tahlil qilingan. N.Komilovning "Tasavvuf" asari komil inson konsepsiyasi va ma'naviy yetuklik haqidagi qarashlarni tarixiy-falsafiy jihatdan o'rganishda alohida o'rin tutadi. A.Erkayevning "Tafakkur erkinligi" hamda "Ma'naviyatshunoslik" asarlari shaxsning mustaqil tafakkuri, ma'naviy rivojlanishi va jamiyat bilan munosabatlarini tahlil qilishga xizmat qiladi. S.Otamuratovning "Globallashuv: millatni asrash mas'uliyati" asarida ko'tarilgan masalalar globallashuv sharoitida milliy o'zlik va ma'naviy qadriyatlarning saqlanishi hamda rivojlanishini o'rganish uchun ahamiyatlidir[6].

Mavjud adabiyotlar shaxs erkinligi, ma'naviy kamolot, milliy o'zlik va tarbiyaning ijtimoiy vazifalarini o'rganish uchun salmoqli ahamiyatga ega. Bunda shaxs erkinligi va kamolotiga oid tarixiy qarashlarning komil inson konsepsiyasi bilan uyg'un jihatlari, tarbiya mezonlarining jamiyat taraqqiyotiga bog'liqligi, globallashuv va raqamli muhitda yuzaga keladigan muammolar o'rganilgan. Mazkur dissertatsiyada ulardan farqlari ravishda Yangi O'zbekistonda Uchinchi Renessans poydevorini yaratish g'oyasi kontekstida sifatli ta'lim-tarbiya, shaxs mobilligi va ta'lim-tarbiya tizimini takomillashtirish imkoniyatlarini tahlil qilishga alohida e'tibor qaratilgan.

Mavjud adabiyotlar shaxs erkinligi, ma'naviy kamolot, milliy o'zlik va tarbiyaning ijtimoiy vazifalarini o'rganish uchun salmoqli ahamiyatga ega. Bunda shaxs erkinligi va kamolotiga oid tarixiy qarashlarning komil inson konsepsiyasi bilan uyg'un jihatlari, tarbiya mezonlarining jamiyat taraqqiyotiga bog'liqligi, globallashuv va raqamli muhitda yuzaga keladigan muammolar o'rganilgan. Mazkur dissertatsiyada ulardan farqlari ravishda Yangi O'zbekistonda Uchinchi Renessans poydevorini yaratish g'oyasi kontekstida sifatli ta'lim-tarbiya, shaxs mobilligi va ta'lim-tarbiya tizimini takomillashtirish imkoniyatlarini tahlil qilishga alohida e'tibor qaratilgan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent

[6] Жўраев Н. Глобаллашув ва маънавият. – Тошкент : Академия, 2015. – 220 б.; Tursunov B.T. Alisher Navoiyning komil inson konsepsiyasini yoshlar qalbiga singdirishda sinergetik metodologiyaning o'rni. Fals.fan. bo'y. fals. dok. (PhD)… dis. avtoref. – Samarqand:SamDU, 2023. – 47 b.; Назаров Қ. Жаҳон фалсафаси қомуси. Иккинчи китоб. – Тошкент: "Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти", 2022.– 852 б.; Salomova H. Tasavvufda komil inson: ruhiy mezonlarining mohiyati va uning mezonlari // Buxoro davlat universiteti ilmiy axborotlari. – 2019. – 3-jild, 1-son. – B.216-223.; Safarova N. Intangible Values and Cultural Heritage"// International Scientific Journal Theoretical & Applied Science. – 2024. – Vol.134, Issue 06. – P.183-185. Pardayeva. M.D. Alisher Navoiy asarlarida komil inson g'oyasi. Fals. fan. nom. ... dis. avtoref. – Toshkent:O'zMU, 2010. – 27 b; Shodiyev J. Inson qadri fenomeni: ijtimoiy-falsafiy tahlil. Fals. fan. dok. (DSc) ... dis. avtoref. – Buxoro: BuxDU, 2025. – 78 b.; Shamsuddinova M. Abu Ali ibn Sinoning tasavvufiy qarashlari. Fals. fan. dok. (DSc) ... dis. avtoref. – Buxoro:BuxDU, 2024. – 74 b.; Eshpulatov I.S. Farobiy, Ibn Sino va Imom G'azzoliylarning "Komil inson" ta'limoti (konsepsiyasi). Fals. fan. bo'y. fals. dok. (PhD)… dis. – Buxoro:BuxDU, 2023. – 51 b.; Суванов И.А. Шахс маънавиятини юксалтиришда миллий ғоя ва ўзликни англаш диалектикаси. Фалс. фан. бўй. фалс. док. (PhD) … дис. – Тошкент:ЎзМУ, 2018. – 46 б.; Voxidova M.T. Yoshlarimizni bag'rikenglik ruhida tarbiyalashda ulug' allomalar merosining ahamiyati // Educational Research in Universal Sciences. — 2023. — Vol. 2, Issue 8.; Komilov. N. Tasavvuf. Birinchi kitob. – Toshkent:Yozuvchi, 1996. – 143-144 b; Эркаев А.Тафаккур эркинлиги. – Тошкент: Маънавият, 2007. – 160 б.; Эркаев А. Ma'naviyatshunoslik. 2-tom. – Тошкент: Маънавият, 2018. – 456 б.; Otamurodov S. Globallashuv: millatni asrash mas'uliyati. – Toshkent: O'zbekiston, 2018. – 352 b.

davlat transport universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq II band “Yangi O‘zbekistonda ma’rifatparvar davlat barpo etishning ijtimoiy-falsafiy va ma’naviy-axloqiy asoslarini takomillashtirish muammolari” (2022-2026 yy.) tadqiqot yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi erkin kamol topgan shaxsni tarbiyalash jarayonini takomillashtirishga doir taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

“erkinlik”, “kamolot” va “shaxs” kategoriyalarining ijtimoiy-falsafiy mohiyatini tahlil etish;

shaxs erkinligi va kamolotiga oid qarashlar evolyutsiyasini tadqiq etish va ularning komil inson konsepsiyasi bilan uyg‘un jihatlari aniqlash;

erkin kamol topgan shaxsni tarbiyalash mezonlari, ijtimoiy ehtiyojlar va qadriyatlardagi o‘zgarishlarning ushbu mezonlar mazmuniga ta’sirini ochib berish;

globallashuvning shaxs erkinligi va milliy o‘zlikni anglashga ta’sirini hamda raqamli transformatsiya sharoitida shaxs kamolotining ijtimoiy-falsafiy muammolarini aniqlashtirish;

Uchinchi Renessans poydevorini yaratish g‘oyasi kontekstida sifatli ta’lim-tarbiya va shaxs mobilligini rivojlantirish zaruratini asoslash;

Yangi O‘zbekistonda erkin kamol topgan shaxsni tarbiyalash tizimini takomillashtirishga oid doir taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning obyekti sifatida erkin kamol topgan shaxsni shakllantirish jarayoni hamda bu sohada olib borilayotgan islohotlar tanlab olingan.

Tadqiqotning predmetini erkin kamol topgan shaxsni tarbiyalash shart-sharoitlari, mezonlari, globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida mazkur jarayonni takomillashtirish mexanizmlari tashkil etadi.

Tadqiqot usullari. Dissertatsiyada analiz va sintez, kompleks yondashuv, tizimli-funksional yondashuv, kontent analiz, retrospektiv tahlil, dialektik, sinergetik, qiyosiy tahlil kabi ilmiy bilish usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

komil inson g‘oyasining ijtimoiy amaliyotda erkin kamol topgan shaxs sifatida ro‘yobga chiqishi, uning shaxsning obyektiv shart-sharoitlarni anglash, hayotiy mo‘ljal va intilishlarini mustaqil belgilash hamda tanlov oqibatlari uchun mas’uliyatni zimmasiga olish qobiliyatlari birligida namoyon bo‘lishi, erkin tanlovning mazmuni esa individual intilishlar, obyektiv zaruriyat va ijtimoiy mas’uliyatni ongli ravishda muvofiqlashtirishda ifodalanishi asoslangan;

erkin kamol topgan shaxs g‘oyasining umuminsoniy xususiyati inson qadr-qimmati, erkinligi va o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarishga intilishida, tarixiy xususiyati muayyan davrdagi ijtimoiy munosabatlar, axloqiy me’yorlar va madaniy qadriyatlar orqali ifodalanishi hamda shaxs kamoloti mezonlarining o‘zgarishi vorisiylik va yangilanish o‘rtasidagi dialektik aloqadorlikka bog‘liqligi ochib berilgan;

zamonaviy jamiyatda erkin kamol topgan shaxsni tarbiyalashdagi ziddiyatlar (tanlov imkoniyatlarining kengayishi, axborot manipulyatsiyasiga qaramlik xavfining ortishi, an’anaviy qadriyatlarning ta’siri zaiflashuvi) kabi nomutanosibliklarda namoyon bo‘lishi, ularni bartaraf etishda tanqidiy baholash,

qadriyatlarni ongli o‘zlashtirish va mustaqil hayotiy pozitsiyasini belgilash qobiliyati kabi vositalar aniqlashtirilgan;

Yangi O‘zbekistonda erkin kamol topgan shaxsni tarbiyalashga qaratilgan ta’lim-tarbiya tizimini takomillashtirishning shaxsning ehtiyoj va qobiliyatlarini aniqlash, individual rivojlanish yo‘nalishini belgilash, mustaqil tashabbuslarni ijtimoiy loyihalarda amalga oshirish hamda natijalarni ongli tanlov, shaxs mobilligi va ijtimoiy mas’uliyat mezonlarini takomillashtirishga oid takliflar ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

erkin kamol topgan shaxsni tarbiyalashda mustaqil fikrlash, ongli tanlov, axloqiy yetuklik va ijtimoiy mas’uliyat uyg‘unligini ta’minlash maqsadida ta’lim mashg‘ulotlarida muammoli vaziyatlarni muqobil qarashlar asosida tahlil qilish va shaxsiy xulosani dalillashga qaratilgan topshiriqlarni qo‘llash; tarbiyaviy suhbatlarda hayotiy tanlovlarning axloqiy mezonlari va ijtimoiy oqibatlarini muhokama qilish; yoshlarning o‘z tashabbusi bilan mahalla va ta’lim muassasasidagi muammolar yechimiga qaratilgan ijtimoiy loyihalarni ishlab chiqishi hamda amalga oshirishini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan;

globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida shaxsning milliy o‘zligini anglashi, axborotni tanqidiy baholashi, hissiy barqarorligi va mustaqil hayotiy pozitsiyasini rivojlantirishga yo‘naltirilgan tarbiyaviy ishlarning milliy madaniy merosni zamonaviy hayotiy qadriyatlar bilan bog‘lab o‘rganish, axborot manbalarini qiyoslash orqali manipulyativ ta’sirlarni aniqlash, raqamli muloqotda hissiyotlarni boshqarish va nizolarni madaniy hal etish, shaxsiy maqsadlarni mustaqil belgilash hamda qarorlar oqibatini baholash kabi ustuvor yo‘nalishlari asoslab berilgan;

Uchinchi Renessans poydevorini yaratish g‘oyasi kontekstida sifatli ta’lim-tarbiya orqali shaxs mobilligini rivojlantirishga doir individual ta’lim yo‘nalishlarini shakllantirish, fanlararo bilimlarni amaliy loyihalarda qo‘llash, akademik almashinuv va ustoz–shogird hamkorligini kengaytirish kabi takliflar, mustaqil bilim olish, yangi faoliyat usullarini o‘zlashtirish va o‘zgaruvchan ijtimoiy sharoitda o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarishni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha shaxsiy rivojlanish rejasini tuzish, ochiq ta’lim resurslaridan maqsadli foydalanish, egallangan ko‘nikmalarni kasbiy va ijtimoiy tashabbuslarda sinab ko‘rish kabi amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiqot jarayonida qo‘llanilgan nazariy qarashlar, tadqiqot usullari va yondashuvlar rasmiy manbalar, faktlar, statistik ma’lumotlarga murojaat qilingan holda olinganligi, tushuncha definitsiyasi ilmiy tadqiqot metodologiyasi va mantiq talablariga amal qilgan holda ishlab chiqilganligi, nashr etilgan ilmiy maqolalar, respublika va xalqaro konferensiyalarda sinovdan o‘tkazilganligi, tadqiqot ishi natijalari bo‘yicha berilgan xulosalar asosida takliflar ishlab chiqilgan bo‘lib, tavsiyalar amaliyotda joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati “erkinlik”, “kamolot” va “shaxs” kategoriyalarining dialektik aloqadorligiga doir xulosalar shaxsning mustaqil tanlovi, axloqiy yetukligi va ijtimoiy mas’uliyati o‘rtasidagi munosabatlarni nazariy jihatdan chuqurroq

anglashga, shaxs erkinligi va kamolotiga oid tarixiy-falsafiy qarashlarning komil inson konsepsiyasi bilan uyg‘un jihatlarini, tarbiya mezonlarining jamiyat taraqqiyotiga bog‘liqligini hamda erkin kamol topgan shaxsni tarbiyalashning nazariy-metodologik asoslarini boyitishda, shuningdek, ijtimoiy falsafa, falsafiy antropologiya va tarbiya falsafasi sohalarida nazariy bilimlarni boyitish, komil inson konsepsiyasini yangi ijtimoiy realliklar asosida talqin qilishda nazariy asos sifatida foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati olingan natijalardan davlat va jamiyat tashkilotlari, ta’lim-tarbiya bilan shug‘ullanuvchi ilmiy muassasalar va innovatsion markazlarning dasturlarni ishlab chiqishda, talabalar bilan uyushtiriladigan davra suhbatlarida, yoshlar faoliyatini rivojlantirishga yo‘naltirilgan maqsadli dasturlar ishlab chiqishda, hududiy “yo‘l xaritalari”, ma’naviy-ma’rifiy faoliyatni rejalashtirish, aholining turli qatlamlari bilan ishlashga mo‘ljallangan differensial yondashuvlarni ishlab chiqish, shuningdek, oliy ta’lim muassasalarida “Ma’naviyatshunoslik”, “Kasbiy ma’naviyat” kabi fanlarning o‘quv-uslubiy majmualarini takomillashtirishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Erkin kamol topgan shaxni tarbiyalashning ijtimoiy-falsafiy muammolarini tadqiq qilish borasida olingan ilmiy natijalar asosida:

komil inson g‘oyasining ijtimoiy amaliyotda erkin kamol topgan shaxs sifatida ro‘yobga chiqishi, uning shaxsning obyektiv shart-sharoitlarni anglash, hayotiy mo‘ljal va intilishlarini mustaqil belgilash hamda tanlov oqibatlari uchun mas’uliyatni zimmasiga olish qobiliyatlari birligida namoyon bo‘lishi, erkin tanlovning mazmuni esa individual intilishlar, obyektiv zaruriyat va ijtimoiy mas’uliyatni ongli ravishda muvofiqlashtirishda ifodalanishiga oid xulosalardan O‘zbekiston Milliy universitetida bajarilgan A-OT-2021-11-son “O‘zbek xalqi diniy va milliy qadriyatlari kompleksining elektron-transdisiplinar platformasini yaratish” mavzusidagi amaliy loyihani bajarishda foydalanilgan (Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universitetining 2025-yil 28-oktabrdagi 04/11-25641-son ma’lumotnomasi). Natijada, loyiha doirasida zamonaviy texnologiyalar rivojlanishi, ishlab chiqarishning avtomatlashuvi va boshqaruvning raqamlashuvi natijasida yuzaga kelayotgan kasbiy hamda ma’naviy talablar bilan bog‘liq muammolar yechimiga doir fikrlar, xulosalar va tavsiyalar ishlab chiqishiga xizmat qilgan;

erkin kamol topgan shaxs g‘oyasining umuminsoniy xususiyati inson qadr-qimmati, erkinligi va o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarishga intilishida, tarixiy xususiyati muayyan davrdagi ijtimoiy munosabatlar, axloqiy me’yorlar va madaniy qadriyatlar orqali ifodalanishi hamda shaxs kamoloti mezonlarining o‘zgarishi vorisiylik va yangilanish o‘rtasidagi dialektik aloqadorlikka bog‘liqligiga doir taklif va tavsiyalardan O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining “Qashqadaryo viloyati teleradiokanali” davlat muassasasi tomonidan yoshlarga oid ma’naviy-ma’rifiy ko‘rsatuvlarni tayyorlashda, jumladan, 29-may kuni efirga uzatilgan “Fayzli kun” teleko‘rsatuvi dastur ssenariysini ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi “Qashqadaryo viloyati teleradiokanali” davlat muassasasining 2025-yil 28-iyuldagi 17-05/125-son ma’lumotnomasi). Natijada, fuqarolarning axloqiy madaniyatini rivojlantirishga xizmat qilgan;

zamonaviy jamiyatda erkin kamol topgan shaxsni tarbiyalashdagi ziddiyatlar (tanlov imkoniyatlarining kengayishi, axborot manipulyatsiyasiga qaramlik xavfining ortishi, an’anaviy qadriyatlarning ta’siri zaiflashuvi) kabi nomutanosibliklarda namoyon bo‘lishi, ularni bartaraf etishda tanqidiy baholash, qadriyatlarni ongli o‘zlashtirish va mustaqil hayotiy pozitsiyasini belgilash qobiliyati kabi vositalarga tegishli xulosalar va takliflardan Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazining 2024-yil uchun chora-tadbirlar dasturi III yo‘nalishi 19-bandida belgilangan “Ma’naviy taraqqiyotni ta’minlash doirasida zamonaviy va ta’sirchan targ‘ibot texnologiyalarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish” bo‘yicha targ‘ibot ishlarini tashkil etish va o‘tkazishda foydalanilgan (Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi huzuridagi Ijtimoiy-ma’naviy tadqiqotlar institutining 2025-yil 11-iyundagi 10/337-son ma’lumotnomasi). Natijada, targ‘ibot faoliyatida erkin kamol topgan shaxsni tarbiyalashning ijtimoiy-falsafiy muammolarini ilmiy-nazariy jihatdan asoslab berishga xizmat qilgan;

Yangi O‘zbekistonda erkin kamol topgan shaxsni tarbiyalashga qaratilgan ta’lim-tarbiya tizimini takomillashtirishning shaxsning ehtiyoj va qobiliyatlarini aniqlash, individual rivojlanish yo‘nalishini belgilash, mustaqil tashabbuslarni ijtimoiy loyihalarda amalga oshirish hamda natijalarni ongli tanlov, shaxs mobilligi va ijtimoiy mas’uliyat mezonlarini takomillashtirishga oid takliflardan O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligining 2025-2026-yillarda yoshlarni qo‘llab-quvvatlash va ularning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarini ishlab chiqishda, “Ibrat farzandlari” loyihasi hamda milliy va umuminsoniy qadriyatlarni targ‘ib qilishga qaratilgan o‘quv-seminar dasturlari mazmunini boyitishda, madaniy-ma’rifiy materiallar tayyorlashda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligining 2026-yil 18-apreldagi 2-13-18-1006-son ma’lumotnomasi). Natijada, shaxs kamolotiga qaratilgan loyihalar mazmunini boyitish, yoshlarning ijtimoiy-ma’naviy moslashuvini tashkil etish va rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Tadqiqot mavzusi bo‘yicha jami 16 ta ilmiy ish, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya qilingan ilmiy nashrlarda 6 ta ilmiy maqola (4 ta respublika va 2 ta xorijiy jurnallarda) chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiya umumiy hajmi 141 betdan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **“Kirish”** qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati, respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi, muammoning o‘rganilganlik darajasi, dissertatsiya bajarilgan ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi tavsiflangan, tadqiqotning maqsadi va

vazifalari, obyekti, predmeti, tadqiqotda qo‘llanilgan usullar yoritilgan. Shuningdek, tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, natijalarining ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan hamda dissertatsiya natijalarining joriy qilinishi, aprobatsiyasi, e’lon qilinganligi, tuzilishi va hajmi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Erkin kamol topgan shaxsni tarbiyalashning nazariy-metodologik asoslari”** deb nomlangan va unda “erkinlik”, “kamolot” va “shaxs” kategoriyalarining ijtimoiy-falsafiy mohiyati va dialektik aloqadorligi, shaxs erkinligi va kamolotiga oid qarashlarning tarixiy-falsafiy evolyutsiyasi hamda erkin kamol topgan shaxsni tarbiyalash mezonlari tadqiq etilgan.

“Erkinlik”, “kamolot”, “shaxs” tushunchalari falsafa tarixida inson mavjudligining mazmuni, ijtimoiy munosabatlarning mohiyati hamda ma’naviy-axloqiy taraqqiyotning mezonlarini izohlovchi fundamental kategoriyalar sifatida qaraladi. Ularning har biri mustaqil nazariy konsepsiyalarga ega bo‘lsa-da, insonni tushuntirish jarayonida ular o‘zaro uzviy bog‘liq, biri ikkinchisini shartlovchi va bir-birini mazmunan boyituvchi tizimni tashkil etadi. “O‘z haq-huquqini taniydigan, ayni paytda o‘z manfaatlarini mamlakat va xalq manfaatlari bilan uyg‘unlashtiradigan insongina jamiyatda mavjud tamoyillarni to‘g‘ri baholay oladi”[7]. Chunki inson o‘z taqdirini o‘zi belgilaydigan va qilgan ishlariga javob bera oladigan mavjudot sifatida tushunilmaguncha, erkinlikni tarbiyaning asosiy tamoyiliga aylantirib bo‘lmaydi.

Tadqiqotda erkinlikning tashqi va ichki shartlari farqlangan. Tashqi erkinlik insonning huquqlari, tanlash imkoniyatlari va faoliyatiga asossiz aralashuvdan himoyalanishida ifodalansa, ichki erkinlik o‘z istaklarini anglash, muqobil yo‘llarni baholash, qarorini asoslash hamda o‘zini boshqarish qobiliyatida namoyon bo‘ladi. I.Kantning iroda avtonomiyasi haqidagi qarashlarida axloqiy faoliyatning subyekt tomonidan anglangan tamoyilga tayanishi muhim o‘rin tutadi[8]. Kamolot bilim, kasbiy malaka va ijtimoiy mavqening ortishi bilangina belgilanmaydi. Uning mazmuniga *vijdon, adolat tuyg‘usi, boshqalar qadrini e’tirof etish va o‘z faoliyatini tanqidiy baholash* ham kiradi. Shu asosda erkinlik kamolotning zarur sharti, kamolot esa erkinlikdan foydalanishning imkoniyati sifatida talqin qilingan.

Dissertatsiyada shaxs erkinligi va kamolotiga oid qarashlarning tarixiy-falsafiy evolyutsiyasi komil inson konsepsiyasi bilan aloqadorlikda o‘rganilgan. Tarixiy tahlilda erkinlik haqidagi tasavvurlarning ijtimoiy munosabatlar va ma’naviy ehtiyojlar o‘zgarishi bilan boyib borishi yoritilgan. Antik falsafada aql, fazilat va adolatli hayot masalalari inson kamolotining ijtimoiy mazmunini ochishda muhim bosqich bo‘ldi. Sharq tafakkurida ezgu fikr, ezgu so‘z va ezgu amal birligi, bilimga intilish, o‘zini tarbiyalash va jamoa oldidagi burch shaxs yetukligining muhim belgilari bo‘lib kelgan. Tasavvufdagi komil inson ta’limotlari insonning ma’naviy o‘zgarishi, nafsni tarbiyalashi va axloqiy poklanishi bilan bog‘liq holda o‘rganilgan.

[7] Назаров Қ. Жаҳон фалсафаси қомуси. 2-китоб. – Тошкент: “Ўзбекистон Файласуфлари миллий жамияти” нашриёти, 2023. – Б. 581.

[8] Qarang: Kant I. Fundamental Principles of the Metaphysic of Morals (1785) / Transl. by T. K. Abbott. Section II: The Autonomy of the Will as the Supreme Principle of Morality. // URL: https://www.gutenberg.org/ebooks/5682 (murojaat sanasi: 04.10.2025).

Alisher Navoiy merosida insonparvarlik, halollik, ilm va hunarga ehtirom g‘oyalari kamolotning amaliy mazmunini ochib beradi. Shaxsning o‘zini takomillashtirishi uning jamiyat bilan munosabatlaridan ajratilmagan.

Yangi davr falsafasida individual mustaqillik va tanlash erkinligining qadri kengroq asoslangan. J.S.Mill individuallikni inson farovonligi va rivojlanishining muhim omili sifatida baholab, hayot tarzini ongli tanlashning ahamiyatini ko‘rsatadi[9].

Birinchi bobning uchinchi paragrafida erkin kamol topgan shaxsni tarbiyalash mezonlarining jamiyat taraqqiyoti bilan o‘zaro bog‘liqligi tadqiq etilgan. Inson qadr-qimmati, erkinligi va o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarishga intilishi umuminsoniy ahamiyatga ega bo‘lsa-da, ularni ta’minlash usullari konkret tarixiy sharoitda shakllanishi ko‘rsatilgan. Mehnat taqsimoti, bilimlarning rivojlanishi, ijtimoiy institutlar va madaniy muhitdagi o‘zgarishlar shaxsga qo‘yiladigan talablarni yangilaydi. Shu sababli tarbiya mezonlari vorisiylik va yangilanishning o‘zaro ta’siri doirasida tushuntirilgan.

Tadqiqotda falsafiy antropologik yondashuv insonning o‘zini rivojlantirish imkoniyatlarini, aksiologik yondashuv uning faoliyatini yo‘naltiruvchi qadriyatlarni ochishga xizmat qilgan. Ijtimoiy ontologik tahlil shaxs kamolotining institutlar, munosabatlar va real turmush sharoitlariga bog‘liqligini yoritgan. Madaniyat falsafasi va sivilizatsion yondashuv orqali esa tarbiya ideallarining tarixiy tajriba, madaniy xotira va jamiyat taraqqiyoti bilan aloqadorligi umumlashtirilgan. Mazkur yondashuvlarning uyg‘unligi erkin kamol topgan shaxsni faqat individual fazilatlar yig‘indisi tarzida talqin qilishning cheklanganligini ko‘rsatadi.

Dissertant fikricha, shaxs kamolotini baholashda mustaqil mushohada yuritish, bilimlarni asosli qo‘llash, axloqiy qaror qabul qilish, hamkorlik va muloqot madaniyati muhim mezonlar sifatida xizmat qiladi. Fuqarolik pozitsiyasi, huquqiy ong, kasbiy halollik, hissiy o‘zini boshqarish, raqamli savodxonlik va ekologik mas’uliyat ushbu mezonlarning zamonaviy mazmunini to‘ldiradi. Ularning o‘zaro aloqadorligi bilimli insonning axloqiy, malakali mutaxassisning ijtimoiy jihatdan mas’uliyatli bo‘lishini talab etadi. Mezonlarni amaliyotga tatbiq etishda faoliyat natijasi bilan birga unga erishish yo‘llari ham hisobga olinishi zarur. Jumladan, topshiriqning bajarilishi mustaqil fikrlash mavjudligini to‘liq ifodalamaydi; tanlovni dalillash, muqobil fikrni tinglash va xatoni tan olish ham muhimdir.

Erkin kamol topgan shaxs tushunchasi insonning tarbiya jarayonida o‘zligini anglashi, salohiyatini ro‘yobga chiqarishi, mustaqil va mas’uliyatli hayotiy pozitsiyani shakllantirishi orqali erishiladigan yuksak shaxsiy-ijtimoiy holatni ifodalaydi.

Dissertant mulohazalariga ko‘ra, “erkinlik”, “kamolot” va “shaxs” tushunchalari o‘zaro chambarchas bog‘liq bo‘lib, ular shaxsning mustaqil fikrlashi, o‘zini anglash jarayoni va hayotiy pozitsiyasini shakllantirishga, jismoniy, aqliy, axloqiy va ma’naviy jihatdan bosqichma-bosqich yetuklikka erishishiga hamda jamiyatda faol, mas’uliyatli va ongli subyekt sifatida kamol toptirishga imkon

[9] Qarang: Mill J. S. On Liberty (1859). Chapter III: Of Individuality, as One of the Elements of Well-Being. // URL: https://www.gutenberg.org/ebooks/34901 (murojaat sanasi: 04.10.2025).

beradi. Shaxsning haqiqiy kamoloti bilim va qobiliyatlarni egallash bilangina emas, balki o‘zligini anglash, mustaqil fikrlash, ongli tanlov qilish va uning oqibatlari uchun mas’uliyatni zimmasiga olish qobiliyatlari bilan belgilanadi. Komil inson g‘oyasida ma’naviy yetuklik, axloqiy poklik, vatanparvarlik, insonparvarlik va adolatparvarlik kabi yuksak fazilatlar ustuvor o‘rin egallaydi. Erkin kamol topgan shaxs aynan shu fazilatlarni o‘zlashtirib amaliy faoliyatida namoyon etishi bilan jamiyat uchun ibratli namuna bo‘la oladi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Globallashuv va raqamli jamiyat sharoitida erkin kamol topgan shaxsni tarbiyalashning o‘ziga xos jihatlari”** deb nomlangan bo‘lib, ushbu bobda globallashuvning shaxs erkinligi va milliy o‘zlikni anglashga ta’siri hamda raqamli transformatsiya sharoitida shaxs kamolotining ijtimoiy-falsafiy muammolari tahlil etilgan.

Globallashuv iqtisodiy, madaniy va axborot aloqalarining o‘zaro bog‘liqligi kuchayadigan jarayon bo‘lib, uning imkoniyatlari bilan muayyan manfaatlar yo‘lida qo‘llanadigan ta’sir usullari farqlanadi. Xalqaro muloqot, ta’lim resurslaridan foydalanish va madaniyatlararo hamkorlik shaxs rivojlanishi uchun yangi sharoit yaratadi. Ayni paytda, tayyor turmush andozalarini tanqidsiz qabul qilish insonning o‘z ehtiyojlari va maqsadlarini mustaqil belgilashiga xalaqit berishi mumkin. E. Giddens zamonaviy sharoitda shaxsiy o‘zlikning shakllanishini ijtimoiy institutlardagi o‘zgarishlar va insonning o‘z hayotiga refleksiv munosabati bilan bog‘laydi[10]. Inson tarixiy xotira, til va qadriyatlarni o‘z hayotiy tajribasi bilan bog‘lab anglaganida, ular uning ongli pozitsiyasiga aylanadi. Bu jarayonda milliy mansublikning fuqarolik, kasbiy va umuminsoniy aloqalar bilan birga rivojlanishi hisobga olingan.

Tadqiqotda milliy o‘zlikni asrashning samarali yo‘li madaniy yopiqlik emas, balki o‘z qadriyatlarini tushuntira olish, ularning mazmunini zamonaviy faoliyatda namoyon etish va boshqa madaniyatlar bilan teng muloqotga kirishish ekani asoslangan. Vatanparvarlikning amaliy mazmuni jamiyat hayotidagi muammolarga befarq bo‘lmaslik va ularni hal etishga mas’uliyatli hissa qo‘shish bilan bog‘langan.

Erkin kamol topgan shaxsni shakllantirish jarayoni samarali bo‘lishi uchun birinchidan, kognitiv (bilish jarayoni) – axborotni qabul qilish, tahlil qilish, tizimlashtirish, ilmiy fikrlash va mantiqiy xulosa chiqarish qobiliyatini rivojlantirish kerak. Ikkinchidan, aksiologik – qadriyatlar iyerarxiyasini shakllantirish, axloqiy mezonlarni mustahkamlash va fazilatlarni shakllantirish zarur. Uchinchidan, praksiologik – insonni faoliyatga tayyorlash maqsadga muvofiq. Kasbiy-axloqiy madaniyat, ijtimoiy mas’uliyat, muloqot va hamkorlik, muammolarni bartaraf etish ko‘nikmalari, raqamli muhitda xavfsiz va faol ishtirok etish qobiliyatlari ushbu yo‘nalish asosida qaror topadi. Zamonaviy postmodern jamiyatda bulardan biri zaif bo‘lsa, tarbiyada muvozanat buzilib, nomutanosiblik yuzaga keladi. Demak, erkin kamol topgan shaxsni tarbiyalash bu nafaqat bilim berish, balki shaxsni aqliy, axloqiy va amaliy jihatdan uyg‘un rivojlantiruvchi uzluksiz va maqsadli jarayondir.

[10] Qarang: Giddens A. Modernity and Self-Identity: Self and Society in the Late Modern Age. Cambridge: Polity Press, 1991.

Tadqiqotda globallashuv sharoitidagi tarbiyaviy ziddiyatlar oila va ta’lim muassasasida shakllanadigan qadriyatlar bilan ommaviy axborot muhitida tarqaladigan xulq-atvor andozalari o‘rtasidagi munosabatda ochib berilgan. Bir tomondan, shaxsga mustaqillik va ijodkorlik zarur bo‘lsa, ikkinchi tomondan, ommalashgan fikrga moslashish, iste’mol va tashqi e’tirofga intilish uning qarorlarini belgilashi mumkin. Bunday sharoitda erkinlikning mavjudligi taklif etilayotgan variantlar soni bilangina o‘lchanmaydi. Inson ushbu variantlarning mazmuni, manbasi va oqibatlarini anglay olishi ham talab etiladi.

Raqamli jamiyatda erkin kamol topish masalasi insonning ruhiy barqarorligi va shaxslararo munosabatlari bilan ham bog‘liq holda tadqiq etilgan. O‘zini boshqalarning ommaviy namoyish etiladigan yutuqlari bilan muntazam qiyoslash, tashqi bahoga ortiqcha bog‘lanish va virtual muloqotning bevosita munosabatlar o‘rnini egallashi shaxsiy o‘zlikni anglashda qiyinchiliklar tug‘dirishi mumkin. Shu sababli tarbiyada o‘zini qadrlash, hissiyotlarini tushunish, muloqotdagi ziddiyatlarni hal etish va yordam so‘ray olish ko‘nikmalariga e’tibor qaratilgan. Raqamli faoliyat bilan mutolaa, ijod, sport va jonli muloqot o‘rtasidagi mutanosiblik muhim shart sifatida belgilangan.

Sun’iy intellekt va avtomatlashtirish imkoniyatlari shaxsning bilish faoliyati hamda kasbiy rivojlanishida muhm rol o‘ynaydi. Ta’limda texnologiyalardan foydalanish o‘quvchining fikrlash jarayonini tushuntirishi va natijaning ishonchliligini asoslay olishi bilan birga tashkil etilishi lozim. Ishonchli manbalarni topish, o‘quv resurslaridan unumli foydalanish va o‘z bilimini amaliy faoliyatga tatbiq etish qobiliyatidagi farqlar ham shaxs kamolotiga ta’sir qiladi. Shuning uchun raqamlashtirishning insonparvar mazmuni texnik infratuzilma, pedagogik ko‘mak va axborot madaniyatining uyg‘unligida ochilgan.

Tadqiqotda zamonaviy tarbiyaning bilishga oid, qadriyatlarga oid va amaliy jihatlari o‘zaro bog‘langan. Axborotni tushunish uning qadriyatlar bilan munosabatini baholashga, baholash esa ongli xatti-harakatga aylanishi kerakligi asoslangan. Shu nuqtayi nazardan, milliy o‘zlikni anglash, mediasavodxonlik, hissiy o‘zini boshqarish va mustaqil hayotiy pozitsiyani rivojlantirish ustuvor yo‘nalishlar sifatida umumlashtirilgan. Natijada imkoniyatlarning kengayishi bilan yangi qaramlik shakllari, madaniy ochiqlik bilan o‘zlikni saqlash, axborot ko‘pligi bilan mazmuniy anglash o‘rtasidagi ziddiyatlarni yumshatish shaxsning ongli faoliyatini qo‘llab-quvvatlashga bog‘liq ekani haqidagi xulosa chiqarilgan.

Dissertant mulohazalariga ko‘ra, hozirgi davrda yoshlar internet, ijtimoiy tarmoqlar, ommaviy madaniyat, turli reklama va blogerlar ta’siri kabi turli manbalardan juda tez va juda ko‘p axborot oladi. Bunda foydali bilim bilan birga, yolg‘on axborot, yot g‘oyalar, ma’naviy qadriyatlarga zid qarashlar ham aralash keladi. Shuning uchun tarbiya jarayonida bola va yoshlarga faqat ma’lumot berish emas, balki axborotni to‘g‘ri anglash, manbasini tekshirish, tahlil qilish va xulosa chiqarish qobiliyatini ham o‘rgatish kerak. Erkin kamol topgan shaxsni shakllantirishda faqat bilimli bo‘lishning o‘zi yetarli emas. Inson atrofidagi voqealarga befarq bo‘lmasligi, jamoada o‘ziga tegishli o‘rinni topa bilishi, haq-huquqini va burchini anglashi kerak. Ijtimoiy mo‘ljali to‘g‘ri bo‘lgan shaxs o‘z oilasi, mahallasi, ish joyi yoki jamiyat hayotida muammolarni ko‘rsa, chetda

turmaydi, qonun-qoidalarga hurmat bilan qaraydi, boshqalar manfaatini ham hisobga oladi. Shu bois zamonaviy ta’lim-tarbiya jarayonining asosiy vazifalaridan biri axborotga moslashuvchi emas, balki axborot muhitida ongli faoliyat yurituvchi, global jarayonlardan chetda qolmaydigan, ayni paytda milliy o‘zligini saqlay oladigan mobil va mustaqil fikrlovchi shaxsni shakllantirishdan iborat.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **“Yangi O‘zbekistonda erkin kamol topgan shaxsni tarbiyalashning imkoniyatlari va mexanizmlari”** deb nomlangan. Bobda Uchinchi Renessans poydevorini yaratish g‘oyasi kontekstida sifatli ta’lim-tarbiya va shaxs mobilligini rivojlantirish zarurati hamda Yangi O‘zbekistonda ta’lim-tarbiya tizimini takomillashtirish istiqbollari tadqiq etilgan.

Uchinchi Renessans poydevorini yaratish g‘oyasi doirasida sifatli ta’lim, shaxs mobilligi va ijtimoiy mas’uliyat o‘zaro bog‘liq. Insonning tashabbuskor bo‘lishiga qo‘yiladigan talablar uning bilim olishi, tanlov qilishi va o‘z tashabbusini amalga oshirishi uchun yaratiladigan sharoitlar bilan mustahkamlanishi zarur.

Tadqiqotda Uchinchi Renessans poydevorini yaratish g‘oyasining inson kamolotiga yo‘naltirilgan mazmuni ochib berilgan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning “Yangi O‘zbekiston – maktab ostonasidan, ta’lim-tarbiya tizimidan boshlanadi” degan fikri ta’limning jamiyat yangilanishidagi o‘rnini ifodalaydi[11]. Ushbu yo‘nalishda ilmiy tafakkur, ma’naviy yetuklik va yaratuvchan faoliyatni rivojlantirish vazifalari dolzarb ahamiyat kasb etadi. Sifatli ta’lim bir nechta asosiy tamoyillarga tayanadi:

birinchidan, “o‘quv dasturlarining zamonaviyligi – o‘quv dasturlarini zamonaviy texnologiyalar talablari, istiqbollari bilan bog‘lash va innovatsion pedagogik uslubiyatlardan foydalanish;

ikkinchidan, uzluksiz ta’lim – inson hayoti davomida bilim va ko‘nikmalarini mustahkamlab borishi uchun moddiy-iqtisodiy, ijtimoiy, huquqiy sharoit yaratish;

uchinchidan, amaliy bilim berish – nazariy bilimlarni amaliyot bilan bog‘lash, dual ta’limni joriy qilish orqali kasb asoslarini o‘zlashtirish, qo‘shimcha ta’lim orqali malakalarni oshirish;

to‘rtinchidan, ta’lim sifati monitoringi – ta’lim tizimini, uning natijadorligini doimiy baholash va tahlil qilish orqali tizimni takomillashtirish va boshqalar”[12].

Sifatli ta’lim iqtisodiy o‘sish va jamiyatning ijtimoiy barqarorligini ta’minlashda beqiyos ahamiyatga ega. Bilimli va malakali kadrlar jamiyat taraqqiyotining asosiy kuchi hisoblanadi. Shu bilan birga, ta’limning yuqori sifati innovatsion iqtisodiyot uchun amaliy intellektual va kasbiy asos bo‘lib xizmat qiladi, xalqaro maydonda raqobatbardoshlikni oshiradi.

Disseratatsiyada shaxs mobilligi yangi bilimlarni o‘zlashtirish, kasbiy va ijtimoiy vaziyatlardagi o‘zgarishlarga ongli munosabat bildirish hamda o‘z salohiyatini turli faoliyat shakllarida namoyon etish qobiliyati sifatida yoritilgan. Uning mazmuni ijtimoiy mavqening o‘zgarishidan kengroq bo‘lib, intellektual moslashuvchanlik va uzluksiz rivojlanishni ham qamrab oladi. Mobillikning

[11] Mirziyoyev Sh. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 29.12.2020. URL: https://president.uz/oz/lists/view/4057 (murojaat sanasi: 04.10.2026).

[12] A’zamxonov I. Sifatli ta’lim taraqqiyot poydevori. “Sifatli ta’lim – taraqqiyot poydevori” mavzusidagi III Respublika ilmiy-amaliy anjumani to‘plami. Toshkent. 2025 yil 15-may, – B. 59.

qadriyatlarga tayanishi shaxsga yangilanish sharoitida o‘z hayotiy yo‘nalishini saqlash imkonini beradi. O‘zgarishga tayyorlikning mazmuni har qanday ta’sirga moslashishda emas, balki yangi imkoniyatlarni asosli baholab, ulardan maqsadga muvofiq foydalanishda ifodalanadi.

